



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Buxoro shahri, 13-14-iyun 2025-yil

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ”**

Международная научно-практическая конференция

г. Бухара, 13-14-июня 2025 года

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF
INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN”**

International Scientific and Practical Conference

Bukhara, June 13-14, 2025

Buxoro – 2025

various operators, and provide tips (in multiple languages) for travelers with disabilities. By uniting scattered efforts, it would increase visibility and trust in inclusive tourism offerings.

- **Leverage Technology Innovations:** Embrace new technologies to improve accessibility. For example, mobile apps with GPS-guided audio tours could be offered at heritage sites for visually impaired visitors. Virtual reality experiences of famous landmarks could be marketed to those unable to physically travel, as a complementary service. Additionally, ensure the upcoming Unified National Tourism Platform builds in accessibility features from the design stage.

Implementing these recommendations will require commitment and coordination, but they are attainable steps toward an inclusive digital tourism future. With strong political will in Uzbekistan for inclusive development and the agility of online tour operators to adapt, the country is well-positioned to make its tourism *accessible for all*. The coming years, starting with 2025's focus on inclusive tourism, will be critical in translating policies and ideas into real changes on websites, in tour itineraries, and ultimately in the experiences of travelers with disabilities exploring Uzbekistan's rich cultural heritage.

References

1. Abdukhakimov, A. (2023). *Official Message*. In **25th UNWTO General Assembly, Samarkand: Information Booklet** (pp. 4–5). UN World Tourism Organization.
2. Advantour. (n.d.). *Accessible Tours in Uzbekistan for Tourists with Disabilities*. Retrieved May 29, 2025, from <https://www.advantour.com/us/uzbekistan/tours/accessible-tours.htm>
3. Glosema Group / UzA News. (2024, January 19). *Development of Accessible Tourism Infrastructure in Uzbekistan*. Retrieved from <https://glosema.group/news/development-of-accessible-tourism-infrastructure-in-uzbekistan/>
4. Intrepid Travel. (n.d.). *Uzbekistan Travel FAQs – Is Uzbekistan accessible for travelers with disabilities?* Retrieved May 29, 2025, from <https://www.intrepidtravel.com/us/uzbekistan>
5. Ibragimov, N., Davronov, I., Yuldashev, K., Radjabov, O., Farmanov, E., & Sharipov, B. (2024). *Inclusiveness of accommodation tools in Uzbekistan and the essence of inclusive tourism*. BIO Web of Conferences, 141, 04044. <https://doi.org/10.1051/bioconf/202414104044>
6. Saitov, B. (2024). *Creation of conditions for inclusive tourism in Uzbekistan*. Pedagogical Cluster: Journal of Pedagogical Developments, 2(11), 142–152.
7. Yuldashev, K., & Davronov, I. (2023). *Using foreign experience in developing inclusive tourism in Uzbekistan*. Journal of Science on Integration and Human Development, 2(4), 77–79.

INKLYUZIV TURIZM O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-IQTISODIY INKLYUZIYANING VOSITASI SIFATIDA

Kurbanova Mohinur Xabib qizi
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
Istamova Robiyabegim Rivojiddin qizi
Buxoro Davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda inklyuziv turizmning ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya vositasi sifatidagi ahamiyati tahlil qilinib, inklyuziv turizmning nazariy asoslari, xalqaro tajriba va O‘zbekistondagi amaldagi holat o‘rganilgan. Shuningdek, turizm infratuzilmasida mavjud muammolar, ijtimoiy to‘siqlar va ularga qarshi chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada inklyuziv turizmning iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni ta‘minlash va ijtimoiy tenglikni kuchaytirishdagi roli asoslanib, O‘zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv turizm, ijtimoiy integratsiya, iqtisodiy imkoniyatlar, imkoniyati cheklangan shaxslar, O‘zbekiston, barqaror rivojlanish

Kirish

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil rivojlanmoqda. Turizm nafaqat madaniy va iqtisodiy yuksalishga xizmat

qilmoqda, balki ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, inklyuziv turizm konsepsiyasi barcha fuqarolarga, jumladan, jismoniy imkoniyati cheklanganlar, keksalar, ayollar va boshqa ijtimoiy zaif guruhlariga teng sharoitlarda sayohat qilish, madaniy merosdan bahramand bo'lish va turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishga qaratilgan.

Inklyuziv turizm ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u orqali kam imkoniyatli guruhlarining turizm faoliyatiga jalb qilinishi, ularning bandligini ta'minlash va jamiyatdagi ishtirokini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. O'zbekistonda bu yo'nalishda bir qator normativ-huquqiy asoslar va dasturlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, amaliyotda hali to'liq inklyuziv turizm tizimi shakllanmagan.

Mazkur maqolada inklyuziv turizmning nazariy asoslari, O'zbekistonda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar, mavjud infratuzilmaviy va institutsional muammolar, shuningdek, xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston uchun mos strategik takliflar tahlil qilinadi.

Maqolaning asosiy maqsadi inklyuziv turizmni ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyaning samarali vositasi sifatida ilmiy jihatdan asoslash va uni rivojlantirish uchun amaliy yo'nalishlar ishlab chiqishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili

Hozirgi vaqtda inklyuziv turizm masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar nisbatan ham. Ular inklyuziv turizmni rivojlantirish ma'lum bir tomonini o'rganish natijalarini o'z ichiga oladi.

Terminologiya masalalari va inklyuziv yoki qulay turizm kabi tushunchaning paydo bo'lish tarixi avstraliyalik iqtisodchi olim Simon Darsi¹ga borib taqaladi. Uning tadqiqotlari inklyuziv turizm sohasining rivojlanishida asosiy nazariy va amaliy asoslarni yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turizm xizmatlarining qulayligini oshirish va ularning teng huquqli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan konsepsiyalarni ilgari surgan.

Darsi inklyuziv turizmni nafaqat ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan, balki iqtisodiy va boshqaruv samaradorligi nuqtai nazaridan ham tahlil qilib, ushbu sohada turizm mahsulotlarini ishlab chiqish, joylashtirish va boshqarish bo'yicha global tajribalarni o'rganishga katta e'tibor qaratgan (Darcy, 2010). Uning tadqiqotlari nogironligi bo'lgan va harakatlanish imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun maxsus xizmatlar va infratuzilma yaratishda yetakchi qo'llanma hisoblanadi.

Shuningdek, Darsi bilan hamkorlikda ishlagan boshqa olimlar, masalan, D. Buxalis va I. Ambroz (2012), inklyuziv turizmni rivojlantirish va boshqarishning ilg'or amaliyotlarini tahlil qilib, ushbu yo'nalishda jahon bozoridagi tendensiyalar va tavsiyalarni shakllantirganlar. Ularning ishlarida inklyuziv turizm mahsulotlari faqatgina nogironligi bo'lgan shaxslarga emas, balki barcha ijtimoiy guruhlariga qulay va kirishimli bo'lishi lozimligi ta'kidlangan.

Bugungi kunda inklyuziv turizm nafaqat inson huquqlari va tenglikni ta'minlash vositasi sifatida, balki iqtisodiy barqarorlik va turizm sohasining yangi segmentlarini rivojlantirish uchun muhim strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda (Bowtell, 2015). Shu nuqtai nazardan, Simon Darsining ishlari inklyuziv turizm sohasining nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etishda asosiy manba hisoblanadi. Inklyuziv turizm g'oyasi zamonaviy turizm nazariyasida inson huquqlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanadi.

Butunjahon Turizm Tashkiloti inklyuziv turizmni, ularning qobiliyatlari yoki kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha odamlarning turizm tajribasida ishtirok etishi va undan foyda olishini ta'minlash sifatida belgilaydi. Bu nogironlar, keksalar va harakatchanligi cheklanganlar uchun turizmni hamma uchun ochiq va qiziqarli qilish haqida deb ta'riflagan².

Dunyo miqyosida inklyuziv turizm konsepsiyasi asosan barqaror rivojlanish kontekstida ko'rib chiqiladi. Masalan, Goodwin (2011) o'z tadqiqotida turizmga inklyuzivlikni ta'minlash orqali nafaqat jamiyatdagi tenglikka erishish, balki iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash mumkinligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Buhalis va Darcy (2011) tomonidan nogiron sayyohlar

¹ Darcy S. Inherent complexity: Disability, accessible tourism and accommodation information preferences // Tourism Management. – 2010. – T. 31. – №. 6. – C. 816-826.

² Global Report on Inclusive Tourism Destinations: Model and success stories. <https://www.unwto.org/middle-east/publication/global-report-inclusive-tourism-destinations-model-and-success-stories>

ehtiyojlarini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu turdagi tadqiqotlar inklyuziv turizmni amaliy jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

Inklyuziv turizmga oid ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili¹

Mualliflar	Inklyuziv turizmga berilgan ta'rif va yondashuv	Asosiy e'tibor berilgan jihatlar	Tavsiyalar
Simon Darcy	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turizm xizmatlari va infratuzilmaning qulayligi, ularning teng huquqli ishtirokini ta'minlash.	Ijtimoiy inklyuziya, xizmat sifatining oshirilishi, nogironlar ehtiyojlari.	Mehmonxona va turizm obyektlarining qulayligini oshirish, ma'lumotlarni yaxshilash.
D.Buxalis va boshqalar	Inklyuziv turizm mahsulotlari boshqaruvi va joylashtirilishi, barcha guruhlar uchun kirishimli va qulay turizmni rivojlantirish.	Mahsulot yaratish, boshqaruv, bozorda pozitsiyalash.	Global tajribalarni joriy qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish.
L.Duyer va S.Darcy	Inklyuziv turizm terminologiyasi va uning rivojlanishining nazariy asoslari.	Terminologiya, iqtisodiy va ijtimoiy o'Ichamlar.	Inklyuzivlik tushunchasini kengaytirish, turizm sanoatidagi o'rni.
J.Bowtell	Inklyuziv turizm iqtisodiy salohiyat va istiqbollari e'tibor qaratadi.	Iqtisodiy barqarorlik, yangi bozor segmentlari.	Inklyuziv turizmni davlat siyosatiga kiritish, investitsiyalarni jalb etish.
R.Scheyvens	Inklyuzivlikni barqaror rivojlanish va mahalliy jamoalarning turizm jarayonlariga integratsiyasi sifatida ko'radi.	Barqarorlik, mahalliy jamoalar ishtiroki.	Turizmni barqaror qilish, mahalliy jamoalarni jalb etish, inklyuziv strategiyalar ishlab chiqish.

O'zbekistonda inklyuziv turizm masalasi so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Jumladan, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasida "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" ratifikatsiya qilindi, bu esa turizm infratuzilmasida ham muayyan o'zgarishlar kiritishni taqozo etdi. Shuningdek, "2022–2026 yillarda turizmni rivojlantirish strategiyasi"da turizm xizmatlari va infratuzilmasining inklyuzivligini oshirish borasidagi vazifalar belgilangan.

Mahalliy olimlar ham inklyuziv turizm bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, X.Sh.Karimov O'zbekistonda ijtimoiy turizmning shakllanish bosqichlarini o'rganib, kam ta'minlangan va imkoniyati cheklangan guruhlar uchun sayohat imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan. D.R.Qodirov esa inklyuziv turizm infratuzilmasining hududiy farqlari va rivojlanish salohiyatini tahlil qilgan.

Metodologiya

Ushbu maqolada ma'lumotlar asosan ikkilamchi manbalardan olindi, xususan, xalqaro va mahalliy olimlarning mavzu doirasida o'tkazilgan tadqiqotlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalari, xalqaro tashkilotlar, institutlar, shuningdek, hisobotlar va statistik ko'rsatkichlar tahlillari amalga


¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

oshirildi. Agoda, booking.com, Kaliforniya universiteti qoshidagi “Ajratish va tegishlilik institute” (Othring & Belonging Institute), Euromonitor international, Buyuk Britaniyaning “Iglu” mustaqil agentligi ma'lumotlari qiyosiy tahlillari amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, inklyuziv turizm mahsulotining bir necha modellarini ajratamiz. Ular ikki omilga asoslanadi: jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarning ishtirok darajasi (to'liq yoki qisman inklyuziya) va bu ishtirokning tabiati.

Bu model siklik xarakterga ega bo'lishi mumkin va maqsadli auditoriyaning afzalliklariga qarab o'zgarishi mumkin. Shunday qilib, agar sayyohlar bir xil kasallikka ega odamlar guruhi bilan sayohat qilish tajribasini orttirs, ular keyinchalik aralash guruhda sayohat qilish imkoniyatidan ham foydalanishlari mumkin. Bu model “inklyuziv turizm rivojlanishining ikki omilli modeli” deb ataladi.



1-chizma. Inklyuziv turizm rivojlanishining ikki omilli modeli¹

Strelnikova M. va boshqalar tomonidan taklif etilgan model inklyuziv turizmni barqaror rivojlanish konsepsiyasining tarkibiy elementi sifatida tahlil qiladi. Mualliflar ushbu modelni ikki asosiy determinant – ijtimoiy va iqtisodiy omillar asosida shakllantiradi. Modelning konseptual asoslari inklyuziv turizmning nafaqat sayyohlik xizmatlari tizimidagi o'zgarishlarga, balki jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga ko'rsatadigan ta'sirini kompleks yondashuvda tahlil qilish imkonini beradi.

1. Ijtimoiy omil - inklyuziv turizmni aholining zaif guruhlarini – nogironligi bo'lgan shaxslar, keksa yoshdagilar, bolali oilalar va boshqa ijtimoiy jihatdan cheklangan guruhlar uchun ochiq va kirish mumkin bo'lgan tizim sifatida qaraydi. Bu omil quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Turizm infratuzilmasining jismoniy va axborotiy kirish imkoniyatlarini ta'minlash;
- Ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish orqali marginal guruhlarining hayot sifatini yaxshilash;
- Turizm faoliyati orqali inklyuzivlik va inson huquqlarini ilgari suruvchi ijtimoiy siyosatni shakllantirish.

Ushbu komponent BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (xususan, SDG 10 – “Ijtimoiy tengsizlikni qisqartirish”) bilan uzviy bog'langan bo'lib, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar prinsiplariga asoslanadi.

¹ Strelnikova M. et al. Development of inclusive tourism as a means of achieving sustainable development //Journal of Law and Sustainable Development. – 2023. – T. 11. – №. 1. – C. e0273-e0273.

2. Iqtisodiy omil - inklyuziv turizmning bozor imkoniyatlarini kengaytirishdagi o'rni va rolini baholaydi. Ushbu omil quyidagicha tavsiflanadi:

- Inklyuziv xizmatlar orqali yangi iste'molchi segmentlarini jalb qilish va umumiy turizm daromadlarini oshirish;
- Aholining zaif qatlamlari uchun bandlik va iqtisodiy faoliyat imkoniyatlarini yaratish;
- Turizm sohasining iqtisodiy diversifikatsiyasiga xizmat qiluvchi inklyuziv mexanizmlarni joriy etish.

Bu omil iqtisodiy barqarorlik va inklyuziv iqtisodiy o'sishning ta'minlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, turizm sektorining ijtimoiy mas'uliyatli va barqaror iqtisodiy tizimga aylanishida ushbu omilning ahamiyati katta.

Ushbu ikki omilli model inklyuziv turizmning murakkab, ko'p qirrali mohiyatini ochib berib, uni ijtimoiy inklyuziya va iqtisodiy integratsiya orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish sifatida tavsiflaydi. Mazkur yondashuv turizmni inson kapitali, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy adolat asosida boshqarish zarurligini asoslaydi. Model konseptual jihatdan mukammal bo'lib, ilmiy tadqiqotlar, davlat siyosati va amaliy turizm rejalashtirishda qo'llash uchun samarali nazariy asos vazifasini bajaradi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonning turizm salohiyati yildan-yilga ortib borayotgan bir paytda, inklyuziv turizmni rivojlantirish orqali mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy inklyuziyani ta'minlash real va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Inklyuziv turizm nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, ayollar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar va boshqa kam ta'minlangan guruhlar uchun teng imkoniyatlarni yaratadi. Bu esa nafaqat inson huquqlari va tenglik tamoyillarining amalga oshirilishini ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish, bandlik darajasining oshishi, mahalliy aholi daromadlarining ko'payishi va hududlararo rivojlanish tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda inklyuziv turizmni tatbiq etishda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- turizm infratuzilmasini barcha guruhlar uchun moslashtirish (aravachali yo'laklar, eshitish va ko'rish imkoniyati cheklanganlar uchun axborot vositalari va xizmatlar);
- kadrlar tayyorlashda inklyuziv xizmat ko'rsatish madaniyatini shakllantirish;
- turizm obyektlarida universal dizayn tamoyillarini joriy etish;
- qonunchilik va strategik hujjatlarda inklyuzivlik tamoyillarini mustahkamlash;
- jamoatchilik, NNTlar va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish.

Shuningdek, O'zbekistonda mavjud ziyoratgohlar, madaniy meros obyektlari va tabiiy resurslar inklyuziv turizm uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, qadimiy shaharlar – Buxoro, Samarqand, Xiva kabi maskanlarda turizm infratuzilmasini inklyuziv tamoyillar asosida rivojlantirish orqali turizmning barqaror va adolatli rivojlanishiga erishish mumkin.

Natijada, inklyuziv turizm O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy yuksalish vositasi, balki ijtimoiy birdamlik, tenglik va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim omil bo'la oladi. Shu sababli, davlat siyosatida inklyuzivlik prinsiplariga asoslangan turizm modelini shakllantirish va keng joriy etish dolzarb strategik vazifa sifatida e'tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Tourism Organization (UNWTO). Inclusive Tourism: Frameworks and Approaches. – Madrid: UNWTO, 2021. – 48 p.
2. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. – Qabul qilingan sana: 2021-yil 15-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4095-son qarori. – 2018-yil 5-fevral.
4. Darcy S. Inherent complexity: Disability, accessible tourism and accommodation information preferences // Tourism Management. – 2010. – T. 31. – №. 6. – C. 816-826.
5. Djalilova R.R. Inclusive tourism in Uzbekistan: current state and prospects // Journal of Tourism Studies. – 2022. – Vol. 3, No. 1. – P. 45–52.

6. Global Report on Inclusive Tourism Destinations: Model and success stories. <https://www.unwto.org/middle-east/publication/global-report-inclusive-tourism-destinations-model-and-success-stories>

7. International Organization for Standardization (ISO). ISO 21902:2021 – Tourism and related services — Accessible tourism for all — Requirements and recommendations. – Geneva: ISO, 2021. – 38 p.

8. UNWTO. Tourism for All – Promoting Universal Accessibility. – Madrid: UNWTO, 2016. – 42 p.

AGROTURIZM OBYEKTLARIDA INKLYUZIV INFRATUZILMANI YARATISH STRATEGIYALARI

Naimova Surayyo
Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi
1-bosqich magistranti
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: mazkur maqolada agroturizm obyektlarida inklyuziv infratuzilmani shakllantirishning dolzarbligi, mavjud muammolar, xalqaro tajribalar va rivojlantirish strategiyalari tahlil qilingan hamda O'zbekiston sharoitida amaliy takliflar ilgari surilgan. Inklyuzivlik konsepsiyasi doirasida barcha ijtimoiy guruhlar, jumladan, nogironlar, keksalar va bolali oilalar uchun qulay sharoitlar yaratish zarurligi asoslab berilgan. Universal dizayn tamoyillari va xalqaro tajribalar asosida agroturizm hududlarida fizik, axborot, transport va xizmat infratuzilmasini moslashtirishning dolzarbligi ko'rsatib o'tilgan. Maqolada, shuningdek, Shelburn Farms va Homesteads for Hope kabi obyektlar misolida inklyuziv infratuzilma joriy etilgan muvaffaqiyatli tajribalar tahlil qilinadi. Xulosa sifatida, agroturizm inklyuzivlikni ta'minlash nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy samaradorlik va turistik raqobatbardoshlikni oshirish omili sifatida qaralishi lozimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: agroturizm, inklyuziv infratuzilma, universal dizayn, turizm imkoniyati cheklangan shaxslar, barqaror turizm, xizmatlar moslashuvi, sezgilar bog'i

KIRISH

So'nggi yillarda turizmning yangi yo'nalishlari, xususan agroturizmga bo'lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. Agroturizm nafaqat qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi, balki mahalliy aholining bandligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va madaniy merosni asrashda ham muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy turizm sanoatida inklyuzivlik konsepsiyasi, ya'ni barcha ijtimoiy guruhlar uchun qulay va teng imkoniyatlarni yaratish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Agroturizm sohasida ham barcha mehmonlar uchun qulay va accessible muhitni yaratish nafaqat ijtimoiy mas'uliyat, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali yondashuvdir. Inklyuziv infratuzilma yaratish orqali agroturizm obyektlari o'z mehmon doirasini kengaytirib, turli ehtiyojlarga ega bo'lgan odamlarni jalb qilishi mumkin.

Inklyuziv infratuzilma deganda turistik joylarga tashrif buyuruvchi barcha shaxslar, jumladan, nogironligi bo'lganlar, keksalar, bolali oilalar va boshqa ehtiyojli guruhlar uchun teng va qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan tizim tushuniladi. Ayniqsa, agroturizm obyektlarida bu infratuzilmalarni joriy etish orqali nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillari ta'minlanadi, balki turizmning salohiyati kengayadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 15 foizi nogironlikning bir turi bilan yashaydi. Aholi qarishining demografik tendentsiyasi tufayli, 2030 yilga kelib, Evropa Ittifoqi aholisining 33% (shu jumladan sayohatchilar) keksa, faol odamlar bo'ladi va ular imkoniyati cheklangan shaxslarga moslashtirilgan yo'nalishlarga muhtoj bo'ladilar. Inklyuziv turizmning maqsadi esa insonning jismoniy cheklovlari, nogironligi yoki yoshidan qat'iy nazar, barcha odamlar guruhlarini foydalanishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar, mahsulotlar va xizmatlardan iborat to'siqsiz dunyoni yaratishdir. Shu sababli odamlarning inklyuziv turizm

Kadirova Shafoat Khabibulloevna. THE ROLE OF ONLINE TOUR OPERATORS IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN	71
Kurbanova Mohinur Xabib qizi, Istamova Robiyabegim Rivojiddin qizi. INKLYUZIV TURIZM O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-IQTISODIY INKLYUZIYANING VOSITASI SIFATIDA	77
Naimova Surayyo. AGROTURIZM OBYEKTARIDA INKLYUZIV INFRATUZILMANI YARATISH STRATEGIYALARI.....	82
Odil Radjabov, Dilshoda Toirova. PROSPECTS FOR IMPROVING ACCESS TO CULTURAL HERITAGE SITES IN BUKHARA FOR PEOPLE WITH DISABILITIES	87

3-SHO'BA. BARQAROR TURIZM: EKOLOGIK, MADANIY VA IQTISODIY MUVOZANAT SARI YO'L

Ermekbaeva Indira Pulatbek qizi. INTEGRATING GREEN ECONOMY PRINCIPLES INTO SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT: A PATHWAY TO ECO-EFFICIENT ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	92
Khalimova Nigina Jafarbekovna, Umedova Madinabonu Shuxratovna. PRACTICE AND PROSPECTS FOR ACHIEVING INTERNATIONAL AND NATIONAL GOALS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT: THE ROLE OF TOURISM.....	95
Khayrullaeva Nilufarbegim Nematillo kizi. ENHANCING METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ECOTOURISM DEVELOPMENT: GLOBAL TRENDS AND UZBEKISTAN'S PERSPECTIVES.....	99
Kurbanova Mohinur Xabib qizi, Tashpulatov Sadridin Sayfulloyevich. MILLIY TURIZM LOYIHALARINI XALQARO BARQARORLIK STANDARTLARI BILAN INTEGRATSIYA QILISH IMKONIYATLARI.....	103
Kuvandikov Aziz Ravshanovich. PERSPECTIVES OF SUSTAINABLE DEVELOPING OF KAGAN REGION AS TOURISM DESTINATION BASED ON MICE TOURISM	106
Maxmudova Nodira Uktamovna. O'ZBEKISTONDA TALABALAR TURIZMINING BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARIGA TA'SIRI	113
Kilichov Mukhriddin. MANAGING SUSTAINABLE TOURISM ON A STATISTICAL BASIS: SCIENTIFIC AND PRACTICAL OPPORTUNITIES OF THE SF-MST SYSTEM	116
Kurbonova Zebiniso Azimovna. THE ROLE OF CULTURAL HERITAGE AND CREATIVE TOURISM IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM	123
Рузиева Махбуба Тулкиновна. АНАЛИЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ РАЙОНОВ ПО ТУРИСТИЧЕСКОМУ ПОТЕНЦИАЛУ: ОБЗОР НАУЧНЫХ ПОДХОДОВ И МЕТОДОВ ОЦЕНКИ.....	131
Тойирова Сарвиноз Атоевна. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА: РАЗВИВАЮЩИЕСЯ ПРАКТИКИ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	135
Yunusova Sohila Abdulmamidovna. TURISTIK TADBIRKORLIGINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA TENDENTSIYALAR	140
Axmatova Moxigul Ergash qizi, Yusupova Dilnoza Ixtiyer qizi. KO'NGILOCHAR TURIZMNING MEHMONDO'STLIK SANOATIDAGI O'RNI	143
Сирлибеков Хабибулло Шакарбой углы. ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА	146

4-SHO'BA. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSIYALAR TURIZM SOHASIDA: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOL

Ashurbayeva Rukiya Kaxharovna. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	149
Axmatova Mohigul Ergash qizi. TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI SIFATINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI	151